

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

Chirchiq davlat pedagogika  
universiteti rektori  
O.T. Muxamedov

2024 yil\*

AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA ASOSLARI  
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lif sohasi:	530 000 – Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lif yo'nalishi:	60530200 – Geografiya

Chirchiq – 2024

<b>Fan/modul kodi</b> AG3506	<b>O‘quv yili</b> 2026-2027	<b>Semestr</b> 5	<b>ECTS - Kreditlar</b> 6	
<b>Fan/modul turi</b> Majbuliy	<b>Ta’lim tili</b> O‘zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 6	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Aholi geografiyasi va demografiya asoslari</b>	90	90	180
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni.</b></p> <p>Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda atroflicha jamiyat ijtimoiy hayotining asosiy sub’ekti xisoblangan aholining Juhon va uning ayrim mamlakatlari, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi misolida, soni (dinamikasi) va takror barpo qilinish qonuniyatlar, omillari, aholining tabiiy va migrations harakatlari, tarkibiy ko‘rinishlari, mehnat resurslari va ulardan foydalanish darajasi, aholining hududiy joylashuvi, aholi manzilgohlarining shakllari va rivojlanishining geografik xususiyatlari bilan tanishtiradi.</p> <p>Fanning oldiga qo‘ygan vazifalari - talabalarga aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining asosiy mazmuni, uning asosiy tushuncha va qonuniyatlar, aholining miqdoriy va sifatiy rivojlanish xususiyatlari, uning tarkibiy jihatlari, hududiy joylashuvi va uning asosiy ko‘rinishlarini tahlil qilish asosida xulosalar chiqarishdan iborat.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)</b></p> <p><b>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Kirish. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, tadqiqot usullari va uning aholi geografiyasi tadqiqotlarda tutgan o‘rni</b></p> <p>Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining shakllanishi va rivojlanishi. Fanning obyekti, predmeti, maqsadi va asosiy vazifalari. Tadqiq etish usullari. Aholi geografiyasi fanining asosiy bo‘limlari. Uning fanlar tizimida tutgan o‘mi, boshqa fanlar bilan fanlararo aloqalari. Aholi geografiyasi fanining xorijda va O‘zbekistonda rivojlanishi.</p> <p><i>Demografiya-</i> lug‘aviy ma’nosи. Demografiyaning alohida fan sifatida rivojlanishi. Aholi-demografiyaning obyekti sifatida. Aholi-insonlarning takror barpo bo‘lishi yig‘indisi. Demografik tarkib va jarayonlar. Demografiya va boshqa fanlar. Demografiya fanlari tizimi.</p> <p><b>2-mavzu. Aholisi soni va dinamikasi</b></p> <p>Aholi soni dinamikasi (tadrijiy o‘zgarishlari). Aholining kategoriyalari: doimiy, vaqtinchalik, mavjud aholi. Dunyo mamlakatlari aholi soni, ularni klassifikatsiyalash. Aholi soni ko‘payishidagi tengsizlikning asosiy sabablari va oqibatlari. Aholi ko‘payishi tarixiy bosqichlari.</p>			

### **3-mavzu. Aholi joylanishi xususiyatlari: aholi zichligi, dunyo aholisi joylanishining geografik xususiyatlari**

Aholining joylanishi va unga ta'sir etuvchi geografik omillar. Aholi joylashishining asosiy shakllari. Aholining joylashishi va xo'jalikni hududiy tashkil etish. Aholining joylanishi haqida umumiy tushuncha. Aholi joylanishining asosiy shakllari. Aholi zichligi haqida tushuncha, uning mohiyati, hisoblash yo'llari. Aholi zichligi va hududning o'zlashtirilishi darajasi. Aholi zichligi bilan bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik muammollar. Hududning demografik, mutlaq va nisbiy sig'implari haqida tushuncha.

### **4-mavzu. Aholi tabiiy harakati. Aholi takror barpo bo'lishi tartibi va geografiyasি**

Aholi tabiiy harakati: tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish. Aholi tabiiy harakatining hududiy xususiyatlari. Aholi takror barpo bo'lishining asosiy qonuniyatlar. Aholi takror barpo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar. Aholi takror barpo bo'lish turlari. Kengaygan, oddiy va qisqargan aholi takror barpo bo'lishi va uning geografik tarqalishi.

### **5-mavzu. Tug'ilish jarayoni va uning hududiy xususiyatlari**

Tug'ilish- demografik jarayon sifatida. Tug'ilish va reproduktiv faoliyat. Tug'ilishga ta'sir etuvchi omillar. Tug'ilish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Aholining reproduktiv mayli va uni o'rganish. Aholining reproduktiv mayli va uni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar.

### **6-mavzu. Aholining o'limi va uning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi**

Aholi o'limi geografiyası-aholi o'limi va tabiiy ko'payish. Aholi o'limi va uning yashash sharoiti bilan bog'liqligi. Aholi o'limi demografik va geografik jarayon sifatida o'rganilishi. Aholi o'limini keltirib chiqaruvchi omillar (endogen, ekzogen va kvaziendogen) va sabablar. Aholi o'limi turlari.

Go'daklar o'limi, uning turlari. Go'daklar o'limi aholi turmush darajasini belgilovchi indikator sifatida. Go'daklar o'limi va uning yashash sharoiti bilan bog'liqligi Go'daklar o'limi demografik va geografik jarayon sifatida o'rganilishi. Go'daklar o'limi darajasini aniqlash usullari. Aholining o'rtacha umr ko'rishi va geografiyası. Umr ko'rish davomiyligi, uning dunyo miqyosida geografik xususiyatlari.

### **7-mavzu. Aholi yosh-jins va ijtimoiy tarkibi**

Aholining tarkibi tushunchasi. Aholi tarkiblari turlari: yosh, jins, nikoh, iqtisodiy, oilaviy, ijtimoiy, diniy, irqiy v.h. Aholining yosh tarkibi turlari va geografik xususiyatlari. Aholining yosh tarkibi, uning shakllanish omillari va yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi. Aholi yosh guruhlari va aholi takror barpo bo'lish o'rtasidagi bog'liqlik masalasi. Aholi yosh tarkibining demografik va hududiy jihatlari.

Aholining jins tarkibi tushunchasi. Aholi jinsiy tarkibini shakllanish omillari, biologik konstanta. Aholi jinsiy tarkibini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Aholining jinsiy tarkibi va tug'ilish, aholi jinsiy tarkibi va o'lim, aholi jinsiy tarkibi va migratsiya jarayonlari. Aholi jinsiy tarkibining geografik

xususiyatlari.

Aholining ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy funksiyasi. Ijtimoiy-iqtisodiy muhit. Aholining tabaqalanishi, uning dunyo mintaqalari miqyosida turlanishi. Aholi ijtimoiy tarkibi bilan ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish o'rtaсидagi bog'liqlik.

#### **8-mavzu. Aholining irqiy tarkibi**

«Irq» haqida tushuncha. Insoniyatning katta yevropeoid, mongoloid, negroid, avstraloid va ko'p sonli mayda irqlardan tarkib topganligi. Sof va aralash irqlar, ularning antropologik farqlari. Irqlar kelib chiqishining biologik asoslari. Irqlararo munosabatlar. Irqiy va etnik birliklar nisbati. Dunyo mintaqalari bo'yicha aholining irqiy tuzilishi.

#### **9-mavzu. Aholining etnik tarkibi**

«Etnos», «elat», «millat», «xalq» tushunchalari. Xalqaro milliy munosabatlar. Yirik va kichik tillar va millatlar. Ko'p millatli, ikki millatli va bir millatli mamlakatlar, milliy-etnik jarayonlar: konsolidatsiya, assimilyatsiya, integratsiya, ularning jahon siyosiy-ijtimoiy hayotida tutgan o'mi. Til oilalari. Til oilalarining geografik tarqalishi. Xalqlarning tili bo'yicha guruhlanishi.

#### **10-mavzu. Dinlar geografiyasi**

Aholining diniy tarkibi. Dunyo dinlari shakllanishi. Arxaik, milliy va dunyoviy dinlar. Xristian: katolik, pravoslav, protestant, islam: shia, sunniylar, budda dinlari geografiyasi va ularning jahon siyosiy-ijtimoiy munosabatlaridagi o'mi. Xinayanlar, maxayanlar va ularning geografiyasi. Dirlarning aholi demografik rivojlanishiga ta'siri. Yirik diniy ziyoratgohlar va ularning xalqaro aholi migratsiyasidagi roli. Dunyodagi boshqa dinlar.

#### **11-mavzu. Mehnat resurslari va aholi bandligi**

Mehnat resurslari, "Iqtisodiy faol aholi", "Iqtisodiy nofaol aholi" tushunchalari va ularning tarkibi. Mehnat resurslari balansi. Mehnat resurslari shakllanishi va ulardan foydalanishning hududiy xususiyatlari. Mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish holatlari. Aholi bandligi muammolari. Mehnat bozori tushunchasi, uning hozirgi holati va rivojlanish xususiyatlari. Aholi bandligi, ishsizlik va uning turlari. Aholi bandligi va uning geografik xususiyatlari.

#### **12-mavzu. Aholining mexanik harakati. Migratsiya geografiyasi**

Migratsiya haqida tushuncha. Migratsiya turlari: ichki, tashqi, ixtiyoriy, majburiy doimiy, vaqtinchalik va mayatniksimon (mokisimon), ularning shakllari va xususiyatlari. Migratsiyani hisobga olish. Migratsyaning alohida hududlar va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri. Migratsiya omillari: siyosiy, milliy-etnik, diniy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqalar. Xalqaro migrantsion harakatlar tarixi, ularning alohida materiklar, o'lkalar yoki hududlarning iqtisodiy o'zlashtirishdagi roli. Tashqi migratsiya. Emigratsiya, immigratsiya, reemigratsiya, deportatsiya tushunchalari va ularning xususiyatlari. Immigratsiya siyosati.

#### **13-mavzu. Shahar aholisi geografiyasi va urbanizatsiya jarayoni**

Shaharlar, shaharchalar va ular tizimi haqida tushuncha. Shahar aholi

punktlarini klassifikatsiyalash. Urbanizatsiyani ifodalovchi ko'rsatkichlarning geografik xususiyatlari. Shahar aholi punktlari shakllari va funksional tiplari. Juhon urbanizatsiyasi. Urbanizatsiya tushunchasi. Turli mamlakatlarda urbanizatsiya darajasining xususiyatlari. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish omillari va turlari. Urbanizatsiyaning «ichki» (vertikal) va «tashqi» (gorizontal) rivojlanishi. Suburbanizatsiya, rurbanizatsiya jarayonlari. Megalopolislar, aglomeratsiyalar, oykumenopolislar.

#### **14-mavzu. Qishloq aholisi va qishloq aholi punktlari geografiyasi**

Qishloq aholisi soni, dinamikasi, geografik tarqalishi. Qishloq aholi punktlari turlari, vazifalari, o'lchami, klassifikatsiyalari. Qishloq aholi punktlari tizimi shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Aralash qishloqlar. Qishloq aholi punktlarining turlari. Qishloq aholi punktlarining dunyo aholisi ko'payishi va tarqalishidagi roli.

#### **15-mavzu: Aholi siyosati. Demografik prognozlar.**

Hozirgi zamон jahon demografik siyosati va konsepsiya-nazariyalarini ishlab chiqayotgan dunyoviy demografik institutlar. (BMT, uning aholishunoslikka oid bo'linmalari, jahon demografik kongressi va boshqalar).

Demografik ilmiy bashoratlash (prognozlash), ularning dunyoviy va regional harakati. Aholi o'sishiga xos ilmiy bashoratlashning demografik asoslar, usullari, ularning aniqlik darajasi va amaliy ahamiyati.

O'zbekistonda aholining o'sishi, farovonligini ta'minlash va salomatigini muhofaza etish yo'lida olib borilayotgan chora-tadbirlar.

### **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

1. Demografik tadqiqotlar rivojlanishi va aholi geografiyasining fan sifatida shakllanishi tarixi.
2. Aholi ro'yxati tarixi va uni o'tkazish bo'yicha jahon tajribasini o'rghanish va baholash.
3. Aholi soni ko'payishining mutlaq ko'payish ko'rsatkichlarini hisoblash.
4. Dunyo mintaqalari aholi soni va uning joyylanishi kartasini tuzish.
5. Aholi soni va dinamikasining nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash.
6. Aholi zichligi haqida tushuncha, uning mohiyati, hisoblash.
7. Aholi takror barpo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.
8. Demografik portlash guruhidagi davlatlar geografiyasini hisoblash.
9. Tug'ilish ko'rsatkichlarini hisoblash.
10. Demografik portlash guruhidagi davlatlarni o'rghanish.
11. O'lim ko'rsatkichlarini hisoblash
12. Go'daklar o'limi va umr ko'rish davomiyligining aholi turmush darajasi bilan bog'liqligi.
13. Dunyo aholisining yosh tarkibi kartasini ishslash.
14. Aholining yosh-jins piramidasini chizish.

15. Dunyo aholisi irqiy tarkibi kartasini ishlash
16. Dunyo aholisining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi kartasini ishlash.
17. Dunyo aholisi etnik tarkibi kartasini ishlash
18. Etnogenez nazariyasi va Gumiylev ilmiy tadqiqot ishlarini ilmiy o'rganish.
19. Dunyo aholisi diniy tarkibi kartasini ishlash.
20. Dunyodagi asosiy diniy markazlar geografiyasini tahlil qilish.
21. Mehnat resurslari balansini topish.
22. Dunyo mamlakatlari aholisi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM) kartasini ishlash.
23. Yuqori malakali ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi. Tashqi migratsiya bo'yicha davlatlar siyosati.
24. Migratsiya koeffitsiyentlarini, samaradorligi, intensivligini hisoblash.
25. Urbanizatsiya, shaharlar aholi soni, zichligi kartasini ishlash.
26. Shaharlarning paydo bo'lishida gidrografik omillarni tahlil qilish.
27. Millioner shaharlar, ularning shakllanashi va rivojlanishini o'rganish
28. Shimoliy yarim shardagi mamlakatlar aholisi milliy, irqiy va diniy tarkibining geografik va demografik jihatlarini baholash.
29. Aholi siyosati, demografik siyosat.
30. Global demografik muammolar va ularni hal etish yo'llari.

#### **IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lifni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

#### **Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Aholi sonining davriy o'zgarish xususiyatlari
2. Aholi va uni ro'yxatga olish jarayoni.
3. Aholining tabiiy ko'payish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar
4. Aholining zamонавиy migratsion harakatlari.
5. Demografik portlash va demografik tanglik jarayonlari
6. Xalqaro migratsiya va uning sabab hamda oqibatlari.
7. O'zbekiston aholisining milliy va diniy tarkibi.
8. Etno-konfessional tarkibning shakllanish xususiyatlari.
9. O'zbekistonda mehnat resurslaridan foydalananish muammolari.
10. O'zbekistonda aholining hududiy joylashuvi.
11. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonining

	<p>rivojlanishi.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>12. Dunyo dinlarining geografik tarqalishi.</li> <li>13. Global demografik muammolar va ularni hal etish yo'llari.</li> <li>14. Urbanizatsiya jarayonining rivojlangan davlatlarga xos xususiyatlari.</li> <li>15. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanayotgan davlatlarga xos xususiyatlari.</li> <li>16. Aholi siyosati olib borishning o'ziga xos jihatlari.</li> <li>17. O'zbekistonda aholi siyosatining asosiy yo'naliishlari.</li> <li>18. Ma'lum davlat aholisi va uning tarkibiy xususiyatlarini tahlil etuvchi referat tayyorlash.</li> <li>19. Mahalliy dinlar va ularning geografik tarqalishi.</li> <li>20. Aralash irqlarning ko'rinishlari, ularning tarqalish geografiysi.</li> <li>21. XXRda olib borilgan demografik siyosat va uning oqibatlari.</li> <li>22. Shaharlar paydo bo'lishining gidrografik omillari.</li> <li>23. Qishloq aholi manzilgohlari: turlari, tarqalish xususiyatlari.</li> <li>24. Shahar aholi manzilgohlari: turlari, tarqalish hususiyatlari.</li> <li>25. Demografik portlash va stabillashuv. Dunyo aholisi dinamikasi.</li> <li>26. Aholi takror barpo bo'lish ko'rsatkichlari.</li> <li>27. Demografik o'tish nazariyasi.</li> <li>28. Migratsiyaning aholi takror barpo bo'lishiga ta'siri. Migratsiyaning iqtisodiy, ijtimoiy va demografik oqibatlari.</li> <li>29. Mehnat bozori tushunchasi, uning hozirgi holati va rivojlanish xususiyatlari.</li> <li>30. Migratsiyaning alohida hududlar va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.</li> </ol>
3.	<p><b>V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- fanning rivojlanish tarixi, ob'ekti, predmeti, tadqiqot usullari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi;</li> <li>- dunyo aholisi soni va dinamikasini tahlil qilish;</li> <li>- tabiiy va mexanik harakati va ularga ta'sir etuvchi omillar;</li> <li>- tarkibiy jihatlarining shakllanish xususiyatlarini tahlil qilishda geografik xaritalardan foydalanish;</li> <li>- statistik ko'rsatkichlar asosida diagramma, grafiklar chizish haqiga <b>bilimga ega bo'lish;</b></li> <li>- Dunyo aholisining soni, yillik o'sish darajasi, uning turli tarkibiy jihatlarining mintaqaviy tafovutlari;</li> <li>- mehnat resurslari va ulardan foydalanish holati;</li> <li>- hududiy joylashushi va aholi manzilgohlari turlari, aholi siyosatini <b>ko'nikmalariga ega bo'lish;</b></li> <li>- Dunyo mamlakatlari aholisi tabiiy va mexanik harakatining mintaqaviy tafovutini yuzaga kelish holatlari;</li> <li>- tug'ilish va o'lim jarayonlarining umumiy koeffitsientlarini;</li> <li>- migrantsion sal'do, aholi zichligi, iqtisodiy faol aholi ko'rsatkichlarini</li> </ul>

	hisoblashga, demografik bashorat va siyosat turlarini tahlil qilish <i>malakasiga ega bo‘lishi kerak.</i>
4.	<p><b>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• amaly topshiriqlar (karta bilan ishslash, geografik masalalarni hal qilish, grafik va diagrammalar chizish);</li> <li>• guruhlarda ishslash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishslash va himoya qilish;</li> <li>• “BBB”, “Tarozi”, “SWOT-tahlil”, “Sinkveyn”, “FSMU”; o‘yin, musobaqa, aylanma trenirovka, takroriy mashq, o‘zgaruvchan mashq, qat’iy tartiblashgan mashqlar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p><b>VIII. Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi. T.: “Innavatsion-Ziyo”, 2020.</li> <li>2. Bo‘riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Toshkent.: 2011.</li> <li>3. Tojiyeva Z.N., Do’smanov F.A. Demografiya. T.: “Innovatsyon rivojlantirish nashriyoti”, 2020.</li> </ol>
	<p><b>IX. Qo‘srimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>4. Qayumov A. va boshqalar. Aholi geografiyasi va demografiyasi. Toshkent.: 2011y.</li> <li>5. Ромашова Т.В Географија насељенија с основами демографии (практикум). Томск. 2014. 100 с.</li> <li>6. Солиев А., Сафаров И. «Иктисодий ва сиёсий география асослари». Ўқув кўлланма Тошкент, Университет, 2003.</li> <li>7. Абдурахмонов Q.X., Абдурамонов X.X. Demografiya. T.: “Ношир”, 2011.</li> <li>8. Vaxobov X. Geografiya. O‘quv qo‘llanma. T.: Uzingomsentr. 2002.</li> </ol>
	<p><b>X. Axborot manbalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>9. <a href="http://www.devedu.uz">www.devedu.uz</a> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi rasmiy sayti.</li> <li>10. <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> – O‘zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika</li> </ol>

	<p>agentligi rasmiy sayti.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>11. www.cspu.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti rasmiy sayti.</li> <li>12. www.unilibrary.uz – O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi</li> <li>13. www.lib.cspu.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti kutubxona web sayti.</li> <li>14. www.geografiya.uz – Geografiya sohasiga qiziquvchilar uchun ilmiy-ommabop sayti.</li> </ol>
7.	<p><b>Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024-yil “<u>29</u>” <u>avgust</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan.</b></p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun ma’sul:</b> Do‘smanov F.A.– ChDPU “Geografiya” kafedrasи katta o‘qituvchisi.</p>
9.	<p><b>Taqribchilar:</b> Tojiyeva Z.N.– O‘zMU “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” kafedrasи muduri, geografiya fanlari doktori, professor Namozov J.A.– Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Geografiya” kafedrasи dotsenti, g.f.f.d., dots.</p>